XALQ DEPUTATLARI ZAFAROBOD TUMAN KENGASHI
QARORI

2023 - yil 14 - dekabr VI-61-119-3-50-K/23 Zafarobod tuman hokimligi

Tuman mahalliy byudjetining 2023 yil 3-chorak yakuni bilan daromadlar rejasining oshirib bajarilgan mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

Tuman mahalliy byudjetining 2023 yil 3-chorak yakuni bilan daromadlar rejasining oshirib bajarilgan mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, “Byudjet kodeksi”ning 126-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyasining 2023 yil 17 – dekabrdagi 02-143 -sonli xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Zafarobod tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i v.b A.Do‘stnazarovga, tuman mahalliy budjetining 2023 yil 3-chorak yakuni bilan daromadlar rejasining oshirib bajarilgan mablag‘lari hisobidan tuman hokimligi balansida bo‘lgan noturar binoning kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish harajatlari uchun 4500000 (to‘rt million besh yuz ming) so‘m hamda binoga tovar moddiy boyliklar harid qilish uchun 70 000 000 (yetmish million) so‘m mablag‘ni tuman hokimligiga ajratish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi v.v.b. B.Esonboevga ajratilgan mablag‘dan maqsadli foydalanish vazifasi topshirilsin.

4. Tuman G‘aznachilik bo‘limi (E.Ergashev)ga xaridlarni O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga rioya qilgan

holda amalga oshirilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish topshirilsin.

5. Zafarobod tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i v.b A.Do‘stnazarov ajratilgan mablag‘dan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (U.Ravshanov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari v.v.b. J.Adilov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **O'.Raxmanov**